

**BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM
METODLARINING SAMARALARI****Ismoilova Farog'at Uralovna***Samarqand viloyati, Urgut tumani 4-son kasb-hunar maktabi o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada biologiya fanining samaradorligini oshirishda foydalaniladigan interfaol metodlar haqida ma'lumot berilgan. Keltirilgan interfaol metodlar orqali darslarni tashkil qilish o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishi hamda faolligini oshirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *interfaol metod, innovatsion texnologiya, virtual va visual laboratoriya, "Matn+test" usuli, "Munozara" o'yini, "Xayoliy sayohat" o'yini.*

Ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarni bilim salohiyatining rivojlanishida interfaol usullardan foydalanish katta ahamiyatga egadir. Dars jarayonida o'quvchilarni diqqatini jalb qilish, darslikdan to'g'ri va maqsadli foydalanish, har bir o'tilayotgan yangi mavzu yuzasidan berilgan tushuncha va ta'riflarni o'zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish zarur. Metodlar asosida o'tilgan dars an'anaviy darslardan ko'ra yaxshi samara beradi. O'quvchilar ongida saqlanib qoladi, hamda ularning musatqil fikrlashga undaydi. Bugungi kunda yoshlarga nisbatan davlat siyosati ham, asosan yosh avlodni keng fikrli, jamiyat ravnaqi uchun munosib hissasini qo'sha oladigan, har tomonlama kuchli, bilimli qilib tarbiyalashdan iboratdir. Biologiyani o'qitishda o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish maqsadida darslarda o'yinlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Metodlar vositasida darslarni tashkil etish oquvchilar biologik qonuniyatlar, hodisalar va hayotiy jarayonlarni o'rganish faoliyatini intensivlantiruvchi va rivojlantiruvchi usullardan biridir. Metodlar o'quvchilarning erkin fikrlash, mustaqil xulosa chiqarish, muammoli vaziyatlardan chiqqa olish qobiliyatini, o'rtoqlari bilan muloqotga kirisha olish xususiyatlarini oshiradi, tez javob topish kunikmasini rivojlantiradi. Metodlarni qo'llash davomida o'quvchilarda hosil bo'ladigan ijobiy his hayajon tuyg'usi ularni charchashdan asraydi. Metodli darslari o'qitishning faol shakllaridan bo'lib bunday darslar o'qituvchi va o'quvchilarning ijodiy yondashuvlarini hamda o'quvchilarning faol bilish jarayonida bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishlarini ko'zda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilab berilganidek, xalq ta'limi sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish zamonaviy darsliklar o'quv uslubiy qo'llanmalar, multimediya ilovalarini yaratish ta'kidlangan. Pedagogik texnologiyalarini amaliyotga tadbiqi jarayonida ta'limni shakllari, metodlari, usullari hamda vositalari takomillashib boradi. Bu albatta o'qituvchilarni nisbiy pedagogik mahorati bilan bog'liq bo'lib har doim o'quvchini izlanishga o'z ustida ishlashga va ijodkorlikka undaydi. Bugungi kunga kelib, ta'limning bunday noan'anviy usullarni qo'llash dars jarayonida kompyuter va texnika vositalaridan katta samara berayotgani va bu ta'lim -tarbiya usullarining bosh mezon sifatida tan olingani hech kimga sir emas. Ta'limda axborot texnologiyalarini qo'llanilishi tarbiyachilarning mavzular yuzasidan tayyorgalik ko'rishlarida erkinlik va

tezkorlikga erishishlarga asos bo'lishi bilan birgalikda tarbiyalanuvchilarga mavzularning tez va oson yetib borishi hammda qiziqishlarining ortishga sabab bo'ladi. Chunki darslarning axborot texnologiyalari va qo'shimcha internet ma'lumotlaridan qo'shimcha manbalaridan foydalanilgan holda olib borilishi bolalarning hozirgi tezkor axborot davrida bir xildagi va zerikarli mashg'ulotlardan farqli ravishda mavzuni aniq va maqsadli tarzda o'zlashtirib olishlariga imkon yaratadi. Internetdan olingan qo'shimcha manbalarni biologiya darslarida qo'llasak, darslarimiz yanada sifatli bo'ladi.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilar biologiya fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish jarayonida mashg'ulot maqsadini bilishi, asboblarni tanlay olishi, yig'ishi va ulardan foydalanishi tajribani amalga oshirish sharoiti va natijalarini yozishi va xulosalay olishi kerak.

Biologiya fanlarini nazariy bilimlarga asoslangan holda amaliyot asosida kengroq o'rganish muhimdir. barcha bo'limlar bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazishning muvaffaqiyati uning mazmuni va tashkil etilishi ko'p darajada o'qituvchiga bog'liq.

Biologiya tabiiy fanlarning bir tarmog'i bo'lib, insoniyatni borliq, jonli tabiat bilan tanishtiradi. O'quvchilarni tabiatni sevishi, tabiiy borliqni tushunib yetishi, tabiatdan o'rinni foydalanib uni ezoqlashga tabiiy boyliklarni muhofaza qilishga o'rgatadigan fanlardan biridir.

Biologiya darslarida virtual va visual laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda multimedia vositalaridan foydalanish o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Metodlar asosida o'tilgan dars an'anaviy darslardan ko'ra yaxshi samara beradi. Men o'z darslarimni interfaol metodlar bilan olib boraman. Shunday metodlardan bir nechitasi haqida ma'lumot bermoqchiman.

"Matn+test" usuli. Bunda o'quvchilarga matn o'qib beriladi yoki ovozli moslama yordamida matn eshittiriladi. O'quvchilar diqqat bilan tinglaydi va quyida beriladigan testlarning yechimini topishadi. Bu usul orqali o'quvchilarning diqqat va xotirasi mustahkanlanadi. Bu usul butun sinf bilan ishlaganda qo'llanadi.

Masalan: Bir tup o'simlik ildizining tukchalari bir-biriga ulab chiqilsa, uzunligi 20 kmga yetishi mumkin. Ildiz tukchalarining faoliyati 10-20 kun davom etadi. Ildizning po'st hujayralari tirik, yumaloq va yupqa qobiqli bo'ladi. Makkajo'xorning 1 mm² so'rish qismida 700 ta ildiz tukchalari bo'ladi. G'o'za nihollarining ildizi bir kecha kunduzda 2-3 sm o'sadi.

"Munozara" o'yini. Munozara o'tkazish mavzusi aniq bo'lishi kerak. Biologiyadan "Orol dengizini saqlab qolish" ekologik muammosi tarixidan tanlangan muammo qismlarga ajratilib 15-20 ta qisqa savollar o'quvchilarga berilib, sinf o'quvchilari 3-4 kishidan guruhlanadi. Guruhlarning savollarga javobi muhokama etiladi va munozara boshlanadi. Munozarada har bir guruh a'zosi qo'yilgan muammolar haqida o'z fikrini bayon etish huquqiga ega. Boshlovchi va 3 kishidan iborat ekspert guruhi barcha javoblarni tahlil qilib, eng maqbul javob variantlarini aniqlaydi va muammoni hal qilishning optimal varianti aniqlanib, munozaraga yakun yasaladi.

"Xayoliy sayohat" o'yini. Ta'limning bu o'yini biologiya, geografiya, til adabiyot va boshqa fanlarda qo'llanilishi mumkin. O'simlik yoki hayvonlar tarqalgan biogeografik viloyatlarga xayolan sayohat qilib, uni yozma tarzda yozish talab etiladi. Ishtirokchi o'zi mustaqil o'sha joyni yozma tasvirlashi kerak. Kimning yozma tasvirlashi mazmunan yuqori saviyada yozilgan bo'lsa, u g'olib hisoblanadi.

Biologiya - darslarini hayotga bog'lash, ularni qiziqarli va ijodiy tashkil etish bosh maqsaddir. Bunda asosiy rolni biologik o'yinlar egallaydi. Biologik o'yinlar nihoyatda xilma xil bo'lib, darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarni qiziqarli bo'lishida o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda qulay va samarali vositalardan biri hisoblanadi. Biologiya darslarida ana shunday zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan interfaol metodlarni qo'llash natijasida o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlari ortadi, mustaqil o'qib o'rganish, jamoa bo'lib ish olib borish sifatlari ortadi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalardan foydalanib o'tilgan darsda o'quvchilar o'z qobiliyatlari va imkoniyatlarini namoyish qilishga erishadilar, jamoa bilan ishlash malakasiga ega bo'ladilar, o'zgalar fikrini hurmat qilishni o'rganadilar. Bu esa, darsning samaradorligini oshirib, ta'lim sifatini kafolatlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev 2019 yil 29 aprel Toshkent. PF-5712- son
2. Tabiiy va aniq fanlarni o'qitishda innovatsion yondashuvga asoslangan ta'lim mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari Samarkand-2018
3. "Maktabda biologiya" - ma'naviy-ma'rifiy ta'limiy jurnal 2018 yil 8-son 4.
4. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va oquv dasturi; Biologiya,- Toshkent-2010.